

# JAHON TILSHUNOSLARINING “KONSEPT” XUSUSIDAGI FIKRLARI VA UNGA TA’RIF BERISH.

Raximjonova O‘g‘iloy Azimjon qizi

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti*

*“Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” yo‘nalishi magistri*

**Annotatsiya:** Konsept atamasining turli izohlari mavjud bo‘lib, quyida taniqli lingvistlar tomonidan berilgan izohlarning bir nechta aks ettirilib, ular buni nima qiyoslagani bayon qilingan. So‘ngida esa ko‘plab fikrlarga asoslanib konsept atamasiga umumiy ta’rif berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konsept, tushuncha, lingvomadaniyat, kognitiv fan, lingvistika, aqliy funksiya, jamoaviy fikr, konseptual tahlil, kognitivlik, ensiklopedik lug‘at, ta’rif.

«Konsept» atamasi kognitiv fanlar, semantika, lingvomadaniyat umuman olganda tilshunoslikning tushunish asosiga kirib, ularning asosiy kategoriyalardan biri deb tan olingan [1]. Hozirgi vaqtida «konsept» atamasining aniq ta’rifi yo‘q, chunki u bir vaqtning o‘zida kognitiv fanlar, semantika, lingvomadaniyatning bir nechta sohalarni qamrab oladi. Bu atama og‘zaki shaklda boshqa shunga yaqin atamalarga o‘xshaydi. Asosiy vazifa «konsept» atamasining barcha jihatlarini o‘z ichiga oladigan aniq ta’rifni berishdan iborat.

Konsept nima ekanligi haqida ko‘p nuqtai nazarlar mavjud.

Mashhur tilshunos S.A.Askoldov konseptni fikrlash mahsuli kabi birtalay turdag'i narsalarning majmuini, bir turdag'i yoki shunga o‘xshashiga almashtiruvchi psixik shakllanish sifatida belgilaydi [2]. S.A.Askoldovning fikricha, konsept obyekt yoki real harakatlarning ayrim tomonlari, masalan, «adolat» tushunchasi o‘rnini bosuvchi bo‘lishi mumkin, shuningdek, turli xil ko‘rinishdagi hatto juda aniq, lekin sof aqliy funksiyalarning o‘mini bosuvchi ham bo‘lishi mumkin deydi. Bular, masalan, matematik tushunchalardir [2]. S.A.Askoldov o‘z e’tiborini fikr sohasidagi konseptlarning o‘rnini bosuvchi roli, umuman olganda, o‘z maqsadi va ma’nosiga ko‘ra real hayotiy munosabatlar sohasidagi turli o‘rnbosar funksiyalar bilan mos kelishiga qaratadi, hayotda ham bunday almashtirishlar juda ko‘p [2]. Boshqa olimlar boshqa ta’riflarni beradi. Olim kognitiv konsept tabiatи haqida ko‘p gapiradi. O‘xshatish ma’nosida, u konseptsiya haqida “konsept aqliy anqlikning eng murakkab to’pgullar kurtaklaridir” deydi [2]. Shuningdek, bilim konsepti haqida gapirish kerak. S. A. Askoldov bilim konsepti tushunchasi har doim qandaydir ko‘p obyektivlik - ideal yoki reallik bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi [2]. U so‘zni konseptning ajralmas qismi sifatida belgilaydi [2]. Z.D.Popova, I.A.Sternin kabi taniqli olimlar konseptni “insonning aqliy salohiyatini asosiy birligi bo‘lgan, nisbatan tartibli ichki tuzilishga ega, shaxs va jamiyatning fikr mahsuli, alohida aqliy shakllanish aks ettirilgan obyekt yoki hodisa haqida keng qamrovli, entsiklopedik ma'lumotlar deb, ushbu sharhni talqin qilish ijtimoiy ong va ijtimoiy ongning ushbu hodisaga yoki mavzuga bo‘lgan munosabati deb bilgan.” [3]. Tilshunos, o‘zbek olim Sh.S.Safarovga ko‘ra , «Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo’llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in’ikosi sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir”[4]. Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritar ekan, shunday deb yozadi: «Kognitiv fan kognisiya bilan shug‘ullansa,

kognitiv tilshunoslik kognisiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballahuvini tadqiq qiladi. Tilha bo'lgan kognitiv yondashuv - bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi”[5]. Konsepsiya esa aynan kongitiv tilshunoslikda ko'proq tushunchaga ega bo'ladi. Boshqa olimlar ham turli ta'riflar berishadi.

R.M. Frumkina konsept konseptual tahlil obyekti ekanligini ta'kidlaydi, uningcha bunday tahlil: “konseptning ma'nosini tushunish yo'lini tadqiq qilish va natijani rasmiylashtirilgan semantik tilda yozish”dir [6]. Konseptual tahlil - bu konsept tahlil obyekti bo'lgan tadqiqot. Konseptual tahlilning ma'nosi - bu, o'z mohiyatiga ko'ra, konseptsiyani bilishni anglatadi, ya'ni konsept borliq olamidan obyekt haqidagi bilimdir.

Rus tilshunosi Yu.S.Stepanov konseptsiyani madaniyat fakti deb hisoblab, tushunchaning uchta komponentini, yoki uchta “qatlamini” belgilaydi:

- 1) asosiy, haqiqiy belgililik;
- 2) qo'shimcha, yoki bir nechta qo'shimcha, «passiv» belgilar, ahamiyatsiz sanaladigan, «tarixiy»;
- 3) tashqi, og'zaki shaklda ifodalanishi odatda umuman tushunchaga ega bo'lмаган, ichki shakl kabi [7].

Zamonaviy tadqiqotlarda «konsepsiya» tushunchasini tahlil qilish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Tushunchaning gnoseologiyasiga ko'ra (tushunchaning kelib chiqishi va uning «joylashuvi», shuningdek, uning voqelik bilan aloqasi va uning namoyon bo'lish shakllari nuqtai nazaridan).

2. Tushunchalar tipologiyasiga ko'ra (muayyan fan (intizom) nuqtai nazaridan, uning konseptual apparati va shu atamadagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda) [8].

Konsept aqliy birlik, ongning elementidir. Inson ongi haqiqiy dunyo va til o'rtasida vositachidir. «Konsept» inson va dunyo o'rtasida vositachilik qiluvchi o'ziga xos madaniy qatlamni tashkil qiladi, u filtrlanadi, qayta ishlanadi, tizimlashtiriladi keyin madaniy ma'lumotlar ongga kiradi. [9].

V.I. Karasikning fikricha, konsept uch komponentdan – tushunarlik, obrazlilik va qiymatlilikdan tashkil topgan [10]. Uning fikricha, lingvistik tushunchada madaniy konsept leksik, frazeologik, paremiologik birliklar, pretsedent matnlar, odob-axloq formulalari, shuningdek, ijtimoiy hayotning takrorlanuvchi parchalarini aks ettiruvchi nutqiy xulq-atvor taktikasi bilan ifodalanadigan ko'p qirrali ma'nolar tarmog'idir [11].

«Lingvistik ensiklopedik lug'at»da «konsept» atamasi mustaqil lug'aviy ma'no bilan ifodalanmagan, ammo uning ma'nosi «Tushuncha» maqolasida ochib berilgan va «konsept» sinonim sifatida uning yonida qavs ichida ko'rsatilgan: « Tushuncha (konsept) so'z ma'nosi bilan bir xil tartibdagi, lekin birmuncha farqli bog'lanishlar tizimida ko'rib chiqiladigan hodisa; ma'no – til tizimida, tushuncha – mantiqiy munosabatlar va shakllar tizimida ham tilshunoslikda, ham mantiqda o'rganiladi” [12].

Yuqoridagi fiklardan kelib chiqib konsept atamasiga umumiy ta'rif beramiz: Konsept-oliy ma'naviy qadriyatlarga ishora qiluvchi, lisoniy ifodaga ega bo'lgan va etnik-madaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan jamoaviy fikr, ifoda birligidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. М.: Гнозис, 2004. С. 75.
2. Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология / под общ. ред. В. П. Нерознака. М.: Academia, 1997. С. 269.
3. Попова З. Д., Стернин И. А. Семантико-когнитивный анализ языка. Воронеж, 2006. С. 24.
4. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
5. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzARB masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Andijon,2012/-B.212-219.
6. Фрумкина Р. М. Концептуальный анализ с точки зрения лингвиста и психолога // Научно-техническая информация. 1992. Сер. 2. № 3.
7. Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. С. 46-54.
8. Прохоров Ю. Е. В поисках концепта. М., 2008. С. 17.
9. Арутюнова Н. Д. Введение // Логический анализ языка. Ментальные действия. М.: Наука, 1993. С. 3-6.
10. Карасик В. И. О категориях лингвокультурологии // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности. Волгоград, 2001. С. 3-16.
11. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты. С. 142.
12. Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В. Н. Ярцевой. М., 1990. С. 384.